

MISR BRITANIYA MUSTAMLAKACHILIGI DAVRIDA.

Mirzayev Jonibek Otabek o`g`li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

E-mail: jonibekmirzayev19@gmail.com

Ochildiyev Ibrohim Usmon o`g`li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

E-mail: ochildiyevibrohim@gmail.com

Allamurodov Akbar Ravshan o`g`li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

E-mail: akbarallamurodov483@gmail.com

Annotatsiya: Quyida berilgan maqolada Misr davlatining Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylangan davrdan to mustaqillikka erishguniga qadar bo'lgan davrdagi hayoti keltirib o'tilgan.

Kalit so`zlar: Istanbul konferensiyasi, Favqulotda kengash, Qohira mudofasi, tashqi qarz masalasi, "Vadf Misri", Misr- Misrliklar uchun, "yangi" sinalgan yo'l.

1882-yili iyun oyida Istanbul shahrida Misr muammosi bo'yicha konferensiya bo'lib o'tadi. Konferensiyada ishtirok etgan barcha davlatlar qatori Angliya delegatsiyasi ham Misr hududini anneksiya qilmaslik yoki bosib olmaslik haqidagi shartnomani imzolashga majbur bo'ladi. Biroq Aleksandriyada safarda bo'lgan Angliya eskadrasining boshlig'i vise-admiral Seymur konferensiya qarorining tasdiqlanishini kutib o'tirmay, Aleksandriyaning harbiy gubernatoriga ultimatum yuboradi. Ultimatumda misrliklardan olib borilayotgan front qurilishini 24 soat ichida to'xtatish talab qilinadi. 1882-yil 11-iyul kuni inglizlar floti Aleksandriyani bombardimon qilishni boshladi. Undan keyin 25 ming kishilik piyoda qo'shinlar shaharni bosib oladi. Qohira shahrida ingliz bosqiniga qarshi mudofaa tashkil etish va uni boshqarish maqsadida Harbiy kengash tashkil etiladi.

Favqulotda majlis Tevfiqni hokimiyatdan ag`darib, Arabiyni qurolli kuchlar bosh qo`mondoni etib tayinlaydi. Arabiyni ixtiyorida 19 ming kishilik muntazam qo`shin va 40 mingta yangi safarbar qilingan qo`shin bor edi. Bundan tashqari Misr katta o`q-dori zahirasiga, ko`plab qurollarga, jumladan, 500 ta to`pga ham ega edi. Arabiy Misrni himoya qilish uchun harbiy strategiyasini ishlab chiqadi. Ammo Arabiyning harbiy-strategik xatosi shunda ediki, u inglizlar Suvaysh kanalining betarafligi haqidagi konvensiyani buzmaydi, deb hisoblab, kanal tomon mudofaasini ochiq qoldiradi. Inglizlar bundan foydalanib, kanalning betarafligi haqidagi konvensiyani chetlab o`tdilar. Port - Said va Ismoiliyaga Hindistondagi qo`shinlarni tashlaydilar va shu tariqa Qohiraga ikki tomondan hujum qiladilar. Bundan tashqari, ayrim badaviy qabilalari yo`lboshchilari inglizlar tomoniga o`tib ketadi. Natijada, Qohira mudofasi mag`lubiyatga uchradi. 1882-yil 14-sentabr kuni ingliz qo`shinlari Qohirani egallaydilar. Arabiy qamoqqa olinadi va Seylon (Shri-Lanka) ga surgun qilinadi. Misr rasman Usmoniylar imperiyasi tasarrufida bo`lsa ham, butun ijro hokimiyati Angliyaning Misrdagi konsulligi qo`liga edi. Bu davrda Fransiya bilan ham tarang munosabatlar uzoq vaqt davom etadi. Faqatgina, 1904-yili Angliya Fransiyaning Marokashdagi hokimiyatini tan olgandan so`ng, Fransiya ham Angliyaning Misrdagi hokimiyatini tan oladi. Bu davrda Misrning tashqi qarz masalasi ham og`irligicha qolayotgan edi. Uni to`lash uchun har yili Misr yalpi ichki mahsulotining chorak qismi sarflanar edi. Inglizlar qarz boshqaruvi evaziga mamlakatni qattiq eksplutatsiya qildi. 1880-yildan 1907-yilgacha paxta eksporti 8 milliondan 30 million funt sterlinggacha ko`paydi. Chet el kapitalining, ayniqsa, ingliz kapitalining kirib kelishi 1882-yildan keyingi davrda Misrning jadal rivojlanishiga zamin yaratdi. XX asr boshlariga kelib, sanoat ishchilari soni yarim milliondan oshib ketdi. Ularning qariyb yarmi yevropaliklardan iborat edi. Misrda ilgari vayron etilgan yevropalashtirish belgilari: klublar, restoranlar, turli xildagi salonlar paydo bo`la boshladi. Jamiyat ikki guruhga: yevropada ta`lim olgan g`arblashtirish tarafdorlari va islom normalarini himoya qiluvchilardan iborat edi. Birinchi jahon urushi tugaganidan so`ng ozodlik kurashining yangi to`lqini boshlandi. Vatanparvar kuchlar «Misr vakillari» («Vadf Misri») deb

atalgan tashkilot tuzdilar. U Misr mustaqilligi uchun kurashni boshqaruvchi tashkilot edi. Tashkilotni Saad Zagʻlul boshqardi. Tashkilot Misrga mustaqillik berishni talab etdi. Bunga javoban inglizlar «Misr vakillari»ning faoliyatini taqiqladi. S. Zagʻlul Malta oroliga surgun qilindi. Bular Misrda ozodlik qoʻzgʻolonining boshlanishiga turtki boʻldi.

1919-yilning 9-may kuni Qohira aholisi namoyishga chiqdi. Namoyish uch kun davom etdi. «Misr — misrliklar uchun» shiori ostida oʻtkazilgan ushbu tinch namoyish mustamlakachilar tomonidan oʻqqa tutildi. Bu namoyishning qoʻzgʻalonga aylanib ketishiga olib keldi. Qoʻzgʻolon katta qiyinchilik bilan boʻlsa-da, bostirildi. Aholi noroziligini pasaytirish uchun Saad Zagʻlul mamlakatga qaytarildi. Ayni paytda u Parij tinchlik konferensiyasiga ham yuborildi. Biroq Zagʻlul Misr mustaqilligining tan olinishiga erisholmadi. Aksincha, Misr ustidan Buyuk Britaniya protektorati tan olindi. Ammo Buyuk Britaniya hukmron doiralari Misrni bundan buyon eski usullar yordamida itoatda saqlab turish mumkin emasligini yaxshi tushunar edilar. Endi Buyuk Britaniya «yangi» — sinalgan yoʻlni tanladi. Bu yoʻl Misrga davlat mustaqilligi berish, biroq turli kuchli vositalar yordamida uning amalda Buyuk Britaniyaga qaramligini saqlab qolish yoʻli edi. Shu tariqa Buyuk Britaniya 1922-yilning 28-fevralida Misrning mustaqilligini tan oldi. Misr mustaqil suveren davlat deb eʼlon qilindi. Buyuk Britaniya oʻzida Misr hududidagi imperiya yoʻllarini qoʻriqlash, Misrni chet el agressiyasidan himoya qilish, chet el manfaatlarini va kam sonli millat vakillarini himoya qilish huquqlarini saqlab qoldi. 1923-yilda qabul qilingan Konstitutsiya Buyuk Britaniyaning yuqorida sanab oʻtilgan huquqlarini qonunlashtirib qoʻydi. Chet elliklarning barcha huquq va imtiyozlari saqlab qolindi. 1924-yilning yanvarida Saad Zagʻlul boshchiligida hukumat tuzildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Ergashev – Jahon tarixi. II qism. T.: 2015
2. M.Lafasov – Jahon tarixi (1918-2008). – T., 2010
3. R.Farmonov, Q.Jo'rayev – “ Xalqaro munosabatlar tarixi “. – T.,2013
4. M.Lafasov, U.Jo'rayev – “Jahon tarixi”. –T.,2005
5. Мамараджабов, Б. (2023). САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(S/6).
6. Мамаражабов, В. N. O. L. (2021). SAUDIYA ARABISTONDAGI OZBEK (TURKISTONLIK) LARGA DOIR TARIXIY JARAYONLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 895-900.